

ISSN: 2181-4031

DOI Journal 10.56017/2181-4031

**4-СОН**

**АПРЕЛЬ, 2023**

**ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ**

**Journal of Fundamental Studies**

**ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ**



**IMFAKTOR  
PAGES**



ISSN: 2181-4031  
DOI Journal 10.56017/2181-4031

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ – 2023

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-4>

## Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

## Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

*Иқтисодиёт фанлари*

**XUJAMOV Laziz Sultonovich**

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi*

*Harbiy xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7829318>

## AMIR TEMUR QO'SHINLARIDA HARBIY KIYIM-KECHAK VA ANJOM-ASLAHALARNING O'RNI VA MODDIY TA'MINOTNING O'ZIGA XOSLIGI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Amir Temur qo'shinlarida harbiy kiyim-kechak va anjom-aslahalarning ta'minoti qanday tartibda amalga oshirilgani, harbiy kiyimlarning ishlab chiqarish jarayoni, anjom-aslahalardan esa jang maydoniga qarab foydalanilgani yoritiladi. Shu bilan birga moddiy ta'minotning o'ziga xosligi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** qo'shin, kiyim-kechak, anjom-aslah, jang, qulaylik, moslashuvchanlik.

## ВОЕННЫЙ В ВОЙСКЕ АМИРА ТЕМУРА РАСПОЛОЖЕНИЕ ОДЕЖДЫ И АКСЕССУАРОВ, И ХАРАКТЕРИСТИКИ САМОЙ МАТЕРИАЛЬНОЙ ПОДАЧИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается порядок снабжения войск Амира Тимура военным обмундированием и снаряжением, процесс производства военного обмундирования, использование военного снаряжения в зависимости от поля боя. При этом анализируется уникальность материального снабжения.

**Ключевые слова:** военная одежда, экипировка, боевая, удобство, гибкость.

## A MILITARY IN AMIR TEMUR'S TROOPS LOCATION OF CLOTHING AND ACCESSORIES AND CHARACTERISTICS OF MATERIAL SUPPLY ITSELF

### ANNOTATION

This article describes the order in which military uniforms and equipment were supplied to Amir Temur's troops, the production process of military uniforms, and the use of military equipment depending on the battlefield. At the same time, the uniqueness of material supply is analyzed.

**Keywords:** military clothing, equipment, combat, comfort, flexibility.

Bugungi kunda bu yorug‘ olamda butun insoniyat uchun ona zaminni asrab avaylash va himoya qilishdan ko‘ra muqaddasroq burch yo‘qdir. O‘z xalqining osoyishtaligini qo‘riqlashdan ham sharaflilik va ezguroq yumush yo‘q. Bu borada Prezidentimiz “... buyuk tarixiy jarayonda xalqimizning harbiy sohadagi boy merosiga tayanib, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkarda bobolarimizning jangovor an‘analarini munosib davom ettirib kelayotgan, jismoniy va ma‘naviy yetuk, zamonaviy bilim, qurol-yarog‘ va texnikalarni puxta egallagan, davlat va xalq manfaatlarini uchun har qanday sinov va mashaqqatlarni yengib o‘tishga tayyor bo‘lgan harbiylarimiz doimo faol ishtirok etib kelayotganlari har qanday yuksak e‘tirofga munosibdir” deb ta’kidlaganliklari be‘jizga emas [1].

Dunyo tamadduniga ne-ne donishmand buyuk olimlar, shoirlarni yetishtirib bergan xalqimiz o‘zining boy tarixi davomida, benazir sarkardalarni ham yetkazib bergan. Jumladan dunyoda birinchi marotaba muntazam armiyaga asos solgan Sohibqiron bobomiz Amir Temurning harbiy daholari yaqqol ko‘zga tashlanib kelmoqda. Amir Temurning harbiy ilmi borasidagi betakror zakovati jahon sarkardalari uchun ulkan dars bo‘lib keldi va hozirgi kunda ham uzliksiz ravishda o‘rganilib borilmoqda. Uning nomi va amalga oshirgan ishlari Sharq va G‘arb mamlakatlari harbiy mutaxassislari o‘rtasida ma‘lum va mashhurdir. Sohibqironning umr bo‘yi jang-u jadallarda va safarlarda yurishi, ko‘plab mamlakatlarni zabt etishi va yengilmas qo‘shinni oqilona boshqarishi barchamiz uchun namunadir. Ulug‘ Temur son jihatdan juda ham ko‘p bo‘lgan qo‘shinni qanday tarzda nazorat qilgani hamda jang maydonlarida misilsiz lashkarlarni sabot bilan boshqargani namoyon bo‘ladi.

Amir Temur o‘z qo‘shinini yengilmas darajasiga olib chiqishi borasida lashkarlarini harbiy kiyim-kechak va anjom-aslahalar bilan ta‘minlanganligiga asosiy e‘tiborini qaratganligi borasidagi tajribasi katta ahamiyatga va o‘rganishga molik.

Amir Temur qo‘shinlari va ushbu davrga tegishli bo‘lgan harbiy kiyim-kechaklar haqida ma‘lumot bizgacha qisman yetib kelgan. Temuriylar davri uchun xos bo‘lgan kiyimlarni nusxalari XVI-XVII asrlarga oid Movarounnahr miniature tasvirlari biz uchun asosiy manba bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, Temuriylar davriga tegishli bo‘lgan harbiy kiyimlar haqida fikr bildirilganda, biz Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridagi miniaturalar qo‘lyozmalari bilan ifodalay olamiz. Temuriylar davridagi harbiy kiyimlar bizgacha yetib kelmagan. Biz faqatgina kiyimlar haqida aniq ma‘lumotlarni arxeologik qazilmalardan olingan ma‘lumotlardan ma‘lum darajada xulosa chiqarib olishimiz mumkin.

Amir Temur o‘z qo‘shinlarining kiyim-kechak va anjom-aslahalariga alohida diqqat e‘tiborini qaratgan. Hattoki ba‘zi bo‘lib o‘tgan janglarda Temur o‘z qo‘shinlarining kiyim-kechaklaridan mohirona foydalana olishi bilan dushmanning jangovar ruhini tushirishga erishgan va g‘alaba qozongan. Temurning askarlari jangga kiyib kiradigan kiyimlarini ranggi va qaysi matodan tayyorlanishi, tashqi muhit bilan aloqasini doimo yodda tutgan. Jangchilar kiyimining ranggi dushmanlarning aqliy-ruhiy faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatishigacha Temurbek hisobga olib jangni tashkillashtirgan. Kam sonli jangchilar bilan dushmanni vahimaga sola olgan. Amir Temur har bir jangovar yurishidan oldin barcha qo‘shin tarkibi bilan harbiy ko‘rik o‘tkazgan va ushbu ko‘rikda jangchilarning kiyim-kechak va anjom aslahalarini mavjudligini tekshirgan.

Ta’kidlash lozimki temuriylar davrida yurishdan oldin qo‘shinni ko‘rikdan o‘tkazishda, uning jangovar ruhi va holatini aniqlash ham an‘ana tarzida borgan. Ko‘rikdan nafaqat jangovar qismlar, shuningdek ularni qurol-yarog‘, oziq-ovqat, kiyim kechak zaxiralari ortilgan bir qator og‘ir karvonlar ketma ket o‘tkazilgan [2].

Qo‘shin yurishga chiqqanidan so‘ng ortlaridan ta‘minot bo‘linmalari ham karvon bilan harakatlangan. Bu ta‘minot bo‘linmalari moddiy ta‘minot bo‘lib unda barcha ta‘minot turlari mujassam bo‘lgan, jangovar ta‘minotdan tortib kiyim-kechak va oziq-ovqat taminotigacha.

Klavixo o‘z kundaligida Amir Temur qo‘shinini harbiy ko‘rikdan o‘tkazganligi va unda qizil movut bilan bezatilgan uch ming juft kiyimlarni bir qancha kishilarga tortiq qilingani haqida yozgan [3].

Sohibqironning qizil rangli kiyim-kechaklarga ko‘p e‘tibor qaratishiga ham alohida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Sohibqiron o‘z qo‘shinlari tarkibida tikuvchilar, kosiblar, chodir tiklovchilar, hayvon terilariga ishlov beruvchilar (oshlovchi), oyoq kiyimlari tikuvchilari, jangovar kiyim va sovutlarga xizmat ko‘rsatuvchi kasb egalarini olib yurgan. Ularning aniq soni aniq bo‘lmasa ham, lekin bo‘linma kabi soni ko‘p bo‘lgan.

Temur qo‘shinlari tarkibiga piyoda va otliq qo‘shin turlari kirgan. Temur va temuriylar qo‘shinlari Chingizxon singari bo‘linmalarni o‘nlik sanoq sistemasi asosida shakllantirgan yani o‘nlik, yuzlik, minglik va tuman kabi. Bu bo‘linmalar ham o‘zaro bir birlaridan kiyim-kechak ust boshlari, rangli bayroqlari bilan farqlanib turgan. Jangchilarning kiyimlari ham turlicha bo‘lib, egallagan lavozimi va darajasi bilan turlicha bo‘lgan. Oddiy askar va uning sardori kiyimlari farqlanib turgan. Sohibqiron jangchilarning kiyim-kechaklarini jangovar vazifalarni bajarish sharoitlariga qarab belgilab bergan edi. Masalan, asosiy piyoda va otliq bo‘linmlari, razvedga bo‘linmalari, qo‘riqlov bo‘linmalari, artilleriya bo‘linmalari, pontonchi va muxandis bo‘linmalari, ta‘minot bo‘linmalari, sozandalar, tabiblar kabi turli xil vazifalarni bajaruvchi askarlarni kiyim kechaklari bir birinikidan farq qilgan. Chunki jang davomida foydalaniladigan kiyim ust bosh bilan boshqa vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalarni kiyimlarining sifat xolati, tashqi muxitga moslashuvchanlik qobiliyati va ximoyalani xususiyati bilan ajralib turgan. Asosiy jangchilarning kiyim-kechaklari metaldan tayyorlangan sovut va matodan tayyorlangan ich va himoya kimlari bo‘lgan. Sovutlar qimmatbaho bo‘lib oddiy askarlar uni olish uchun puli yetmagan.

Metal sovutlar esa puxta ishlangan bo‘lib vazni og‘ir bo‘lsada jangda dushman qurollaridan yetarlicha himoya qila olgan. Ich kiyim va himoya kiyimlari esa ko‘proq tabiiy tolalardan tayyorlangan kiyim-kechaklar bo‘lgan. Chunki jang uzoq davom etgan vaqtda, jangchilarning qizishi, tanasidan ter ajralishi va kiyimning jiqqa ho‘l bo‘lib tanaga yopishib qolishi bilan jang davomida noqulaylik tug‘dirishga sababchi bo‘lgan. Bu esa jangchilarning jangovar tayyorgarligiga katta tasirini o‘tkazgan.

Amir Temur bularni bilgan holda jang davomida jang shiddatini uzliksiz olib borish, jangchilarga jang davomida yuzaga keladigan noqulayliklarni bartaraf etish uchun kichik ko‘rinsada lekin jangning taqdiriga katta ta‘sir etuvchi kiyim-kechaklarga befarq bo‘lmagan. Odam tanasi uchun zararsiz, turli xil kasalliklarga olib kelmaydigan, terlaganda o‘ziga tez yutib olib jangchiga halal bermaydigan matolardan harbiy jangovar kiyimlar tayyorlashga buyruq bergan.

Shunday buyruq berdimki, yurish vaqtida oddiy askarlardan har o‘n sakkiz kishi o‘zi bilan birga bir chodir (hayma) olsin, har bir askar ikki ot, bir kamon, bir sadoq o‘qdon (tarkash), bir qilich, arra, bigiz, bir qop (juvol), juvoldo‘z, bolta, o‘nta igna va orqaga osiladigan charm xalta (charm po‘sh) olsin [4].

Temurning bunday buyruq berishining sababi ko‘p sonli qo‘shinni o‘z vaqtida tabiiy extiyojlarini qondirishi, yurish davomida va jang mobaynida yuzaga keladigan suniy to‘siqlarni bartaraf etish uchun mo‘ljallangan edi. Jangchilarning qurol-yarog‘ va anjom aslaxalarini olib yuruvchi qoplari ham asosan hayvon terisidan tayyorlangan yoki qattiq to‘qilgan matolardan tikilgan qoplar bo‘lgan. Kamon yoylarini olib yuriladigan sadoq (o‘qdon) ham asosan hayvon terisidan tayyorlangan. Sohibqironning hatto harbiy yurishlarga igna olib chiqishigacha belgilab bergani bu jangchilar doimo o‘z ust boshlarini o‘zlari ta‘mirlashi uchun bo‘lgan. Temurning lashkarlari o‘zining harbiy kiyim aslahalarini o‘zlari tikib, o‘zlari texnik xizmat ko‘rsatishgan. Buyuk Temur o‘z jangchilarini harbiy yurishlarda yirtiq va juldurvaqi kiyimlarda yurishini hush ko‘rmas edi. Yirtilgan kiyim-kechaklar jangchi uchun kichikna lekin bardavom qiyinchilik tug‘dirar edi.

Sohibqiron barcha sharoitlarda jangovar shaylikni ushlab turish maqsadida o‘z sipohiy va amirlari uchun harbiy kiyimlarni belgilab bergan edi. Bu kiyimlarni to‘yu tomosha, bazmlar va marosimlarda ham kiyib borishar edi.

Amir qildimki, sipohiyilar, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar va o‘nboshilar devonxonaga, bazm-majlislariga kulohsiz (bosh kiyimsiz), etiksiz, sarmuzasiz, bo‘rk yoqalik chakmonsiz, bo‘kda, qilichsiz hozir bo‘lmasinlar [4, B.122].

Har bir otliq askarlar o'zlaridan tashqari o'z qaramog'idagi otlarning ham ust boshlariga, anjom-aslaxalariga javobgar bo'lgan. Otlarning eng ahamiyatli aslahalari – egar bo'lgan, va chavonoz (otliq askar) ot ustida qancha uzoq vaqt o'tira olishi egarga, uning qulayligiga bog'liq bo'lgan.

Sohibqiron Samarqandga dunyoning eng mashhur kasb va hunar egalarini jamlagan oqil inson edi. Qaysi mamlakatga yurush qilgan bo'lsa, o'sha yurtdagi kasb, hunar egalarini, avliyo va olim insonlarni qidirib topib poytaxt Samarqandga yuborgan. Bu bilan Temurbek Samarqandga dunyoga dong'i taralgan mashhur insonlarni to'plagan. Bu insonlar mamlakatning rivoji uchun o'z xissalarini munosib qo'shib borishgan.

Temur Damashqdan fazilat sohiblarini, turli hunar ahillarini va qanday bo'lmasin biron kasb egasi bo'lgan mohir kosiblarni – to'quvchilar, tikuvchilar, sangtaroshlar, duradgorlar, (temir) qalpoq yasovchilar, otboqarlar (mol tabiblari), chodir yasovchilar, lochindorlar – bir so'z bilan aytganda qanday hunar ahli bo'lsa birga olib ketdi [5].

Yana boshqa manbalarda ham Amir Temurni ushbu viloyatdan ya'ni:

Damashqdan turli hunarmandlarni olib keldi. Bular orasida ipak va boshqa mato to'quvchilar, nayza va har hil qurol yasovchilar, dunyoda eng dong'i ketgan shisha ishlovchilar bor edi [6].

Amir Temur shunisi bilan ahamiyatliki o'z zamonasing eng yetuk hunarmandlarni Samarqandga jamlay olgani va qo'shinining jangovor ta'minotini yuqori darajada amalga oshirganida edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, Amir Temurning harbiy san'ati, strategiyasi yoki davlat boshqarish tizimida, qo'yinki barcha yo'nalishlardagi mahorati Benazir bo'lgan. Biz Sohobqironning o'z armiyasini jangovar ta'minotini bitta maqola bilan qamrab olib, barcha jihatlarini to'laqonli ochib berish mushkul masala hisoblanadi.

Amir Temur har tomonlama kuchli bo'lgan, o'z davrining ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, harbiy nuqtai nazardan qaraganda yengilmas qo'shinga asos soldi. Sohobqiron har bir jangga o'tlanishdan oldin jang taqdiri uchun ta'sir qiluvchi muhim jihatlariga e'tibor berdi.

Bugungi kunda Amir Temur shaxsini o'rganish bilan birga o'zlikni anglash, yengilmas va matonatli jangovar ruhni shakllantirishga barcha yo'llar ochildi.

## ИҚТИБОСЛАР

1. SH. M. Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. Xalq so‘zi. 2022 yil 14 yanvar.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn. Fors tojik tilidan tarjima, kirish so‘z va izohli lug‘atlar tarix fanlari kandidanti A. O‘rinboyevniki. Toshkent, 1969, - 91-92 betlar.
3. Рюи Гонзалес де Клавихо. Дневник путешествия ко двору Тимура въ С.: 1403-1406гг. Спб, 1881. - с. 334.
4. Amir Temur Ko‘ragon. Temur Tuzuklari. Toshkent.: “Fan”, 2019, - 121 b.
5. Mo‘minov I. M. Amir Temurning O‘rta osiyo tarixida tutgan o‘rni va ro‘li. “Fan”. Toshkent. -1993 -30 b.
6. Saidqosimov. S. Ahmedov. A. Amir Temur jahon tarixida. – T.: “Sharq”, - 2001, - 97 b.

ISSN: 2181-4031  
DOI Journal 10.56017/2181-4031

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)